

“SHAYBONIYNOMA” ASARIDA DINIY TERMINLAR

Egamova Oltinoy Ashuraliyevna

GulDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida doktoranti

E-mail: egamovaoltino59@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, tarixiy asarlarda diniy terminlarning berilishi masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi tarixiy asarlarda, xususan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida diniy terminlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridagi diniy terminlar maqolaning illyustirativ materiali sifatida xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: termin, atama, so‘z, til, din, matn, islom, musulmon, xoliq, Tangri, Alloh, Xudo, Yaratgan va b.

РЕЛИГИОЗНЫЕ ТЕРМИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ШАЙБОНИЙНОМА»

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется проблемам узбекского языкознания, в частности вопросам представления религиозных терминов в исторических произведениях. Цель исследования заключается в изучении специфических особенностей религиозных терминов в исторических источниках, в частности в произведении Мухаммада Салиха «Шайбонийнома». Религиозные термины, встречающиеся в произведении «Шайбонийнома» Мухаммада Салиха, послужили иллюстративным материалом для данной статьи.

Ключевые слова: термин, понятие, слово, язык, религия, текст, ислам, мусульманин, халык (Творец), Тангри, Аллах, Бог, Создатель и др.

RELIGIOUS TERMS IN THE WORK “SHAYBONIYNOMA”

Abstract. This article focuses on the issues of Uzbek linguistics, particularly on the representation of religious terms in historical works. The aim of the study is to investigate the specific features of religious terminology in historical sources, especially in Muhammad Solih’s work “Shayboniy-noma.” The religious terms found in Muhammad Solih’s “Shayboniy-noma” serve as illustrative material for this article.

Keywords: term, concept, word, language, religion, text, Islam, Muslim, Creator (Khaliq), Tangri, Allah, God, Creator, etc.

KIRISH

Til – jamiyat taraqqiyoti, milliy tafakkur va madaniy merosning muhim ko‘zguvidir. Har bir davrning ijtimoiy, siyosiy va diniy qarashlari til orqali ifodalanadi hamda tarixiy manbalarda o‘z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan,

tarixiy asarlarda qoʻllangan terminlar, ayniqsa diniy terminlar, oʻsha davrning dunyoqarashi, eʼtiqodi va mafkuraviy yoʻnalishini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Oʻzbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish jarayonida diniy terminlarning oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi. Islom dini bilan bogʻliq tushunchalar, atamalar va iboralar nafaqat diniy matnlarda, balki badiiy va tarixiy asarlarda ham keng qoʻllanilgan. Bu esa diniy terminlarning semantik, stilistik va funksional xususiyatlarini oʻrganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu jihatdan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari oʻz davrining muhim tarixiy-badiiy yodgorligi sifatida eʼtiborga loyiqdir. Mazkur asarda nafaqat tarixiy voqealar, balki diniy tushunchalar, eʼtiqodiy qarashlar va terminlar ham oʻziga xos tarzda ifodalangan. Asarda uchraydigan “Alloh”, “Tangri”, “Xudo”, “Yaratgan” kabi diniy birliklar tilning boyligini hamda muallifning diniy dunyoqarashini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Diniy matnlarni lingvistik aspektda tadqiq etish masalalari jahon tilshunosligida ham oʻrganilgan. Jumladan, N.Mechkovskayaning “Til va din”, A.Minnegaliyevaning “Tatar diniy-didaktik adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi traktati “Muxtasar al-Quduri” materialini asosida” nomli nomzodlik dissertatsiyasi, M.Sattarova, R.Nurmuxametova, T.Iskovichning “Kommunikativ pragmatik va kategorial matn asoslarida diniy uslubning janrga tizimlashtirish” nomli doktorlik dissertatsiyasi hamda “Muammoni qoʻyishda janr aspektidagi diniy-funksional uslub” nomli tadqiqoti, Z.Xafizovaning “Boshqird tili diniy leksikasining maʼnaviy tasnifi” kabi ishlar fikrimizni isbot etadi. Demakki, bu yoʻnalishda dunyo tilshunosligida muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Diniy leksikaning lisoniy xususiyatlari boʻyicha oʻzbek tilshunosligida ham bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. N.Uluqovning “Oʻzbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi”, T.Yuldashevning “Navoiy va Boburning islom farzlariga bagʻishlangan asarlarida qoʻllangan sharʼiy atamalarning lisoniy tahlili”, Sh.Sultonovanning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari”, M.Galiyevaning “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi”,

Sh.Amonturdiyevaning "O'zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi", Sh.Yusupovaning "Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi" tadqiqotlari shular jumlasidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asaridagi islomiy diniy terminlar anglatgan tushunchalar mohiyatini bilish uchun dastlab din nimaligini chuqur tushunish, dinga oid so'zlar haqida yaxshi bilishi kerak. Ushbu asar asosida o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar diniy so'zlar tahliliga u qadar keng to'xtalmagan. "Shayboniynoma" asaridagi islomiy diniy terminlar asarda qahramonlar va personajlar xarakter xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda aks etgan davrning ajralmas bo'lagi hisoblangan diniy e'tiqod va uning asar qahramonlari e'tiqodi bilan bog'liqligi hamda diniy so'zlarning ular nutqidagi o'rnining nechog'li muhimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda keyingi yillardagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy o'zgarishlar Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari tilini xususan terminologiyasini o'rganishni dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibiga olib chiqdi. Bunday o'zgarish diniy so'zlar tizimida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Dinga, diniy ta'limga keng yo'l ochilgani munosabati bilan va bag'rikenglik tamoyilining to'liq qaror topishi bilan islom dini va islomiy leksika miqdor jihatidan ham, sifat jihatidan ham keskin taraqqiyotga yuz tutdi. Biz ayni o'rinda Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari tili lug'at tarkibining salmoqli qismini tashkil qiladigan diniy leksika – diniy terminlar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Ma'lumki, badiiy asarda qo'llangan lug'aviy birliklar bilan diniy leksikani aks ettiruvchi lug'aviy birliklar o'zaro bir-biridan ayrim xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Badiiy asarda ijodkor qahramon qiyofasini, xarakter-xususiyatlarini ochib berishda so'zlardan erkin va ijodiy foydalansa, diniy matnlarda esa unday emas. Muallif diniy matnlar tuzishda qo'llanishda bo'lgan diniy tushunchani anglatuvchi lug'aviy birliklar – terminlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi. So'zlar ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan lug'aviy ma'no anglatadi, diniy terminlar esa maxsus tushuncha anglatadi. So'zlar ma'no nozikligini ko'rsatishi uchun matnda kelishi talab etilsa,

diniy terminlarda esa bunga ehtiyoj yo'q, ular matndan tashqarida ham diniy tushuncha anglataveradi.

“Shayboniynoma” asarida qo'llangan arabcha so'zlar diniy e'tiqod va diniy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar, antroponimlar, mavhum tushuncha ifodalovchi terminlardir.

“Shayboniynoma” asarida quyidagi diniy terminlar faol qo'llanganligini kuzatamiz: *shariy, xoliq, payg'ambar, din, rasul, anbiyo, avliyo, shariat, tariqat, haqiqat, tengri, na't, Qur'on, roziyalloh, imom, xudo, oshiq, orif, shayton, majlisi ruhoni, tengrisevar, islom, valiy, avliyo, tilovat, vaqf, taqdir, imon, namoz, banda, ilmi tasavvuf, xoja, shayxulislom, Tengri taolo, shar'i islom, shayx, jannat, Masiho, sunnat, tengri, niyoz, kafan, tobut, do'zax* va b.

Anbiyog'a yo'q edi qurbi hanuz,

Avliyog'a yo'q edi dard ila so'z. (Sh, 21)

Avliyo suhbatig'a yetkandur,

Atqiyxo xidmatig'a yetkandur. (Sh, 28)

Avliyo – arabcha so'z bo'lib, valiy so'zining ko'plik shakli. Xudoga yaqin odam. Tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o'zini saqllovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan tiyiluvchi kishi. (O'TIL. T., 2006, 31-b.)

Aql ila Bu Aliyi asrdur ul,

Shoh emas, *valiyi* asrdur ul. (Sh, 27)

Valiy – arabcha so'z bo'lib, avliyo so'zining birlikdagi ko'inishi. Do'st, sodiq, yordamchi, madadkor. Sohib, xoja, murabbiy. Yaqin, muqarrab. Muqaddas inson. Keltirilgan *avliyo va vali(y)* terminlari birlik va ko'plikda kelgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida berilgan diniy terminlarning lug'aviy-mavzuiy guruhlari. O'zbek tiliga turli davrlarda, turli tillardan o'zlashgan so'zlarni tadqiq qilish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tili jamoasiga hududiy yaqin bo'lmagan xalqlardan biri arablardir. O'zbek tili va uning lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida arab tilining ham samarali o'rni va ta'siri bor. Lotin va grek tillari yevropa xalqlari tillariga qanday ta'sir qilgan bo'lsa,

arab tili ham musulmon mamlakatlari xalqlari tiliga o'shanday ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham arab lug'aviy o'zlashmalari musulmon mamlakatlari xalqlari tili leksikasida baynalmilal qatlamni tashkil qiladi. Bu ham, albatta, o'ziga xos nolisoniy asosga ega.

O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar o'ziga xos nolisoniy asoslarga ega. Bu nolisoniy asos asrlar osha bir hududda og'a-inilarcha yashab kelayotgan o'zbek va tojik xalqlarining mushtarak ijtimoiy taqdiri bilan bog'lanadi. Bu ikki xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti, diniy va axloqiy e'tiqodi, madaniyati, ma'naviy va ruhiy olami biri boshqasidan farq qilmaydi. Bularning barchasi ularning tillarida ham o'z ta'sir kuchiga ega. Shu bois o'zbek tili lug'at tarkibida forsha-tojikcha, tojik tili lug'at tarkibida o'zbekcha-turkcha lug'aviy birliklar ko'p miqdorda uchraydi. Zero til va uning markaziy birligi bo'lmish so'zlar orqali ijtimoiy va tabiiy hayotdagi barcha narsa-hodisalar va ularning o'zaro munosabatlari in'ikos etiladi.

O'zbek tiliga diniy tushunchalarni anglatuvchi terminlar tabiiyki asosan arab tilidan o'zlashgan. Qur'oni karimning arab tilida nozil bo'lishi, hadislarning arab tulida berilishi va hattoki bir necha yuz yillar mobaynida arab tilining ilm-fan tili bo'lishi buning asosiy sabablaridan deb bilamiz.

Biroq, o'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalarni faqat islom dini bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Gap shundaki, o'zbek tilidagi arabcha lug'aviy birliklar faqat din tili, islom tili orqali emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili boyligi sifatida ham o'zlashgan. Shu bois ham arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek ijtimoiy hayotiga daxldor deyarli barcha asosiy tushunchalarni ifodalashdek keng ko'lamga ega bo'ldi.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida quyidagi mavzuiy guruh va to'dalarga oid diniy terminlardan ham bilish mumkin. Asosiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi terminlar: tengri, xoliq, xudo.

"Shayboniynoma" asarida **payg'ambarimiz** nomlari Rasul, Nabiy kabi tilga olingan. Payg'ambar forsha so'z bo'lib, "payg'om, payyom – xabar, xabar keltiruvchi" ma'nolarni anglatadi. Ilohiy kuchdan vahiy olgan shaxslarning nomi hisoblanadi.

Na *nabi* bor edi ando, na *rasul*,

Na furu' u na hikoyoti usul. (Sh, 20)

Sunnat ila amal aylang doim,

Nabi amrini tutunglar qoim. (Sh, 206)

Rasul – arabcha elchi. Allohning amr va yo'l-yo'riqlarini insonlarga yetkazadigan va Kitob, yangi shariat sohibi bo'lgan hamda bandalar ichidan tanlab olingan payg'ambar. Hikmati Allohning o'ziga ayon bo'lgan bu qoidaga ko'ra, har bir "Rasul" "Nabiy" bo'lur, ammo "Nabiy" "Rasul" bo'la olmaydi.

Asarda Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin, sodiq, ishongan to'rt nafar do'stlari, safdoshlari, u zotdan so'ng xalifalik qilgan Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib haqida quyidagi baytlar uchraydi:

Alidin o'zgani bilmoslor edi,

Jahl jomidin oyilmoslor edi.

Borchaning og'zida: "*Haydar, Haydar*",

Xuftari ando *Abubakru Umar*.

Kimki "*Usmon*" – dedi o'ldi ando,

Kim "*Ali*" – dedi qutuldi ando. (Sh, 155)

Asarda Shayboniyxon din peshvosi sifatida ulug'lanadi. "Hazrati imom-uz-zamon, xalifat-ur-raxmon" (Sh, 27) deb tariflanadi. *Xalifa* arabcha so'z bo'lib, o'rinbosar, noib degan ma'noni anglatadi. Ilk islomda jamoa hayotini shariat bo'yicha tartibga solish va Alloh taolo ko'rsatmalarining musulmonlar tomonidan amal etilishini nazorat qilish uchun saylab qo'yilgan musulmon jamoasi rahbari. Kunlardan birida bir kishi Hazrati Umarga: Rasululloh xalifasining xalifasi... – deb murojaat qildi.

Ibodatga oid terminlar: *namoz, tilovat, fotiha, duo, niyoz, ibodat*.

Chin *tilovat* birla mashg'ul bo'lur,

Ango arvohi muqaddas o'kukur. (Sh, 29)

Ittifoq andavu *dinu imon*,

Zarbi shamsheru *namozu qur'on*. (Sh, 35)

Diniy unvon va darajani ifodalovchi atamalar: *Imom, Mashoyix, Muhaddis, Xoja, Shayxulislom, Shayx, Mashoyix*. "Shayboniynoma" asarida Shayboniyxon

quyidagi diniy unvon va darajalar bilan tilga olinadi: Imom Muhammad Shayboniyxon (Sh, 23), Hazrati imom-uz-zamon, Xalifat-ur-rahmon (Sh, 27) kabi.

Imom – arabcha soʻz boʻlib, oldinda turuvchi degan maʼnoni anglatadi. Ergashiladigan shaxs, namozda oldinda turuvchi, boshqaruvchi. Sharʼiy istilohda esa oʻrniga qarab turli maʼnolarda ishlatiladi. Islom davlati xalifalarini ham imom, deb nomlashgan. Ilm va tafakkur bobida yuksak maqomga erishgan allomalar, *mazhabboshilar*, muhaddislarga ham “imom” unvoni berilgan. Masalan: Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Aʼzam, Imom Gazzoliy kabi.

Shayxulislom arabcha soʻz boʻlib, islom dini shayxi maʼnosida qoʻllanadi. Diniy qonunlarni sharhlovchi. Musulmon ruhoniylari boshligʻining unvoni, oliy diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoniy. Burhoniddin Margʻinoniyning uch oʻgʻullari ham otalaridan soʻng navbatma-navbat shayxulislom boʻlganlar. (B.Margʻinoniy. Hidoya. T. 1. T.: Adolat, 2000, 11-b.)

Mashoyix – shayxning koʻplik koʻrinishi. Mashoyixlar atamasi Islom taʼlimotida, asosan, tariqat ustozlariga nisbatan qoʻllaniladi. Bu soʻz shariat ulamolariga nisbatan ham ishlatiladi. Yana kun mashoyix qoshigʻa kelib dedikim, tanugʻ boʻlingkim, men tunokun qilgan tavbadan tavba qildim. (Alisher Navoiy. 15-tom. Nasoyimul-muhabbat. T.: Gʻ.Gʻulom nashriyoti, 1968, 98-b.)

Xojalarni qoʻligʻa olgʻach xon,

Ayladi lashkar eliga farmon. (Sh,51)

Qoldi bir xojaga davri ayyom,

Qilib erdi ani shayxulislom. (Sh, 53)

Atonib erdi buzurgi ayyom,

Ham Samarqand aro shayxul-islom.

Ul degondir angoki: “Ey nekunom,

Shayx xud bor, vale yoʻq islom”. (Sh, 77)

Muhaddis [arabcha محدث – hikoyachi, hamsuhbat; hadis olimi, hadis aytuvchi] Hadislarni toʻplash, saralash va sharhlash bilan shugʻullangan ilohiyotchi. Hazratni muhaddislar sardori Imom Buxoriyning arvohi chorlardi. S.Siyoyev, Yassaviyning soʻnggi safari. (OʻTIL, III, 250)

Dedi: “*Paygʻambar oytqon soʻzni,*

Qilibon yo'lida payrov o'zni.

Bu *hadis* erdiki xon etti bayon,

Ham *muhaddis* edi, ham shohi zamon" (Sh, 204).

Tasavvuf ta'limotidagi yo'l, maqom nomlari: Oллоh jamoliga erishishdagi tasavvuf ta'limotidagi yo'l, maqom 4 ta. *Shariat, Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat.*

Maqom arabcha so'z bo'lib, joy, o'rin, manzil kabi ma'nolarni beradi. Islomda so'fiylikka xos tushuncha, har bir so'fiy bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar. Maqomlar soni asosan to'rtta: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat.

Biyik maqomiga ul kim tilar sabot kerak,

Ki egrilikni qo'yub, tuzlik aylasa qonun.

(Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. T.: Fan, 1960, 728-b.)

Shariat – arabcha so'z bo'lib, izhor qilmoq, bayon etmoq, yo'l. "Shariat" so'zi amalda "to'g'ri yo'l", "ilohiy yo'l", "qonunchilik" ma'nolarida qo'llaniladi. U islom dinining diniy, huquqiy qonunchilik tizimi sifatida ijtimoiy va shaxsiy hayotni tartibga solib turadi. Unda huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me'yorlar va diniy talablarga qonun tusi berilgan.

Ham shariat eli zor o'ldilar,

Zoru besabru qaror o'ldilar.

Ham tariqat eli qildilar oh,

Kim, tariqat eli erdi ul shoh.

Han haqiqat ulusi qovruldi,

Ham haqoyiq chamani sovruldi.

Ilmning daftari bo'ldi barbod,

Bo'ldilar ilm ulusi noshod. (Sh, 263)

Shariatga asos qilib, Qur'oni karim, sunna, ijmo', qiyos olingan. Sunna payg'ambarimizning sunnatlari, hadislaridir. Ijmo' - yakdillik bilan qabul qilingan qaror, ya'ni diniy jamoaning yagona fikri. Qur'oni karim va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal etishda diniy huquqshunoslar to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishdir. Qiyos (arabcha ma'nosi "taqqoslash") – Qur'on va sunnada berilmagan biror huquqiy masala, shunga o'xshash masala bo'yicha ko'rsatmaga taqqoslash, qiyoslash yo'li bilan sharh etiladi,

tushuntiriladi. Bular diniy qonunshunoslikda fiqh – shariat manbalari, deb e'tirof etilgan. Shariat qonunchiligi XI -XII asrlarda tugal shakllanib bo'lgan.

Shariat – bu kishilar amal qilishi uchun islom dini tarafidan buyurilgan hukmlar va nizomlardir. Shariat hukmlarini bilib olish har bir mo'min-musulmonga farzdir. (Ahmad Usfiy Maqsudiy. Shar'iy hukmlar to'plami. T., 1990, 2-b.)

Tariqat arabcha so'z bo'lib, yo'l, yo'nalish, usul. Tasavvufda ma'naviy kamolotga olib boruvchi to'rt yo'lning *shariat*dan keyin turadigan ikkinchi nomi.

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,

Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.

(Alisher Navoiy. T.7. Xazoyinul-maoniy. T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1988, 441-b.)

Ma'rifat – 1. Alloh taoloning zotida va sifatlarida bir ekanligini bilmoq, mislsiz va sheriksiz ekanligiga ishonmoqdir. 2. Alloh taoloning ismlari va sifatlarini sidqan tanimoq. Tasavvufdagi to'rt muqaddas yo'lning eng oliyi sanaladi. *Ma'rifat* insonning o'zini va Robbisini tanishidir. Inson faqat ma'rifatulloh orqali saodatga erishadi.

Sunnat ila amal aylang doim,

Nabi amrini tutunglor qoim.

Biri tahqiqi riyozat bo'ldi,

Taqi ikkinchi *shariat* bo'ldi.

Biri *sunnat*, yana biri istig'for,

To'rt bo'ldi, bizning, ey ahli shumor.

Bo'ldi yettinchi *ibodat* tahqiq,

Tilongiz borcha *xudodin* tavfiq. (Sh, 206)

“Shayboniynoma” asarida *Qur'on* nomi bir necha o'rinlarda tilga olinadi, ilohiy, muqaddas kitob ekanligi qayd etladi. *Qur'on* – arabcha so'z bo'lib, qiroat, o'quv ma'nolarini beradi. Musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad (s.a.v)ga Alloh taolo tomonidan 23 yil mobaynida farishta Jabroil orqali nozil qilingan ilohiy kitob bo'lib, 114 ta sura, 6210 oyat, 77434 so'zdan tarkib topgan. *Qur'on* o'zidan oldin nozil bo'lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlarini o'zida jamlaganiga ishorat bordir. *Qur'on*da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va taqiqlari o'z ifodasini topgan.

Bordur aning ishi *qur'on* birla,
O'lturubtur necha sulton birla. (Sh, 34)

Tengrining otin og'izga olmoq,
Tengri *qur'oni* sori ko'z solmoq. (Sh, 154)

Asarda diniy terminlardan bo'lgan *xalifalar* haqida ham o'rni bilan to'xtalgan. *Xalifalik* – Payg'ambar (s.a.v.)dan noib bo'lib, din ishlarini, diniy ilmlarni tarqatish, Islom arkonlarini qoim qilish, tushgan o'ljani bo'lib berish, hadd – shar'iy jazolarni qoim qilish, zulmlarni ko'tarish va unga tegishli barcha davlat ishlaridagi rahbarlik.

Chin yurush qildi jahondin *Siddiq*,
Oldi *Xattob* aning o'rnin tahqiq,
Chun borur bo'ldi jahondin *Xattob*,
Borcha *Usmong'a* yig'ildi ashob.
Surdi andin so'ng ulusqa farmon,
Mustafo o'rnida bo'ldi sulton. (Sh, 156)

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida qo'llangan diniy terminlarning asosiy qismini tub terminlar tashkil etadi. Shu bilan birga yasama va qo'shma terminlar ham qo'llangan.

Tub terminlarga *xoliq, payg'ambar, din, rasul, anbiyo, shariat, tariqat, haqiqat, tengri, na't, imom, xudo, orif, shayton, islom, valiy, avliyo, tilovat, vaqf, taqdir, imon, namoz, banda, xoja, shayx, jannat, niyoz, kafan, tobut, mufti, shayx, qozi, dev, pari, Qur'on, tengri, kofir, farishta, do'zax, jannat, so'fi, zohid, fotiha, duo, namoz, niyoz, oyot (oyat), oyat, hadis, sunnat, nabi, riyozat, ibodat, tobut, turbat (qabr)* va b.; **qo'shma terminlarga** *tengrisevar, shayxulislom* va b.; **birikma terminlarga** *majlisi ruhoniyy, ilmi tasavvuf, tengri taolo, shar'i islom, oxirat evi (oxirat uyi)* va b.

"Shayboniynoma" asarida qo'shma terminlar sermahsul bo'lmasada qo'llangan:

Qoldi bir xojaga davri ayyom,
Qilib erdi ani *shayxulislom*. (Sh, 53)
Yig'latur *tengrisevar* qullarni,
Bog'latur dev kelur yo'llarni. (Sh, 26)

Birikma terminlar qo'shma terminlarga nisbatan asarda ko'p ekanligi kuzatiladi. Masalan,

Oxirat evini ma'mur etkoy,

Anda ham o'zini mansur etkoy. (Sh, 168)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" nomli badiiy asarida ijodkor qahramon qiyofasini, xarakter-xususiyatlarini ochib berishda so'zlardan erkin va ijodiy foydalangan. Asar muallifi diniy matnlar tuzishda diniy tushunchani anglatuvchi lug'aviy birliklar – terminlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi. So'zlar odatda lug'aviy ma'no anglatadi, asardagi terminlar esa maxsus diniy tushuncha anglatuvchi birliklar hisoblanadi. O'zbek tiliga diniy tushunchalarni anglatuvchi terminlar, tabiiyki, asosan, arab tilidan o'zlashgan. Qur'oni karimning arab tilida nozil bo'lishi, hadislarning arab tulida berilishi va hattoki bir necha yuz yillar mobaynida arab tilining ilm-fan tili bo'lishi, asar qahramonlarining islom diniga mustahkam e'tiqodini ko'rsatishda diniy terminlardan muallif mahorat bilan foydalangan hamda o'rinli qo'llagan.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946.
2. Амонтурдиева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик тадқиқи: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2020. – 48 б.
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Hazrati Umar. – T.: Movarounnahr, 2005, 53-b.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
6. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon-Iqbol, – 2021. – 202 b.
7. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.
8. Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол. фан. док. (DSc) дисс... автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – 79 б.
9. Муҳаммад Солиҳ. "Шайбонийнома". Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи филология фанлари доктори, профессор Эргашали Шодиев. – Тошкент: Фафур Фулом, 1989. – 336 б. – Б.4. Мақолда (Sh, 26) kabi berildi.

10. Мечковская Н.Б. Пособие для студентов гуманитарных вузов. – М.: Агентство «ФАИР», 1998. – 352 с.
11. Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции “Мухтасар ал-Кудури”: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Казань, 2007.
12. Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982.
13. Султонова Ш. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Фарғона, 2018. –55 б.
14. Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. –220 б.
15. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960.
16. Улуқов Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 29 б.
17. Юлдашев Т.К. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2003. –23 б.
18. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Фарғона, 2021. – 52 б.
19. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974.
20. **Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o'g'li. Payg'ambarlar qissasi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993.**
21. <http://hdl.handle.net/10995/38999>
22. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/38999/1/urgu1550_d.pdf
23. <https://www.openrepository.ru/article?id=675824>